Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолитдинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения.....	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldosheva</i>	

LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI TALABALARDA IJTIMOIY MAS'ULIYAT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TADQIQI

Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldosheva

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada loyihaviy ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini shakllantirishning metodologik asoslari va amaliyotdagi samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot miqdoriy usulda, maxsus ishlab chiqilgan IMK–25 anketasi orqali 324 nafar talabaning ishtirokida amalga oshirildi. Olingan natijalarga ko'ra, ijtimoiy mas'uliyat darajasi loyihaviy ta'lim faoliyatidagi ishtirok tajribasiga bog'liq holda oshib borishi aniqlandi. Faktor tahlili ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi bir nechta kognitiv va affektiv komponentlardan tashkil topganini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida tadqiqot natijalari mahalliy va xalqaro ilmiy manbalar bilan solishtirildi va loyihaviy ta'lim ijtimoiy kompetent rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida asoslandi. Maqolada ta'lim tashkilotlari, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun aniq amaliy tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: loyihaviy ta'lim texnologiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, kompetensiya, talabalar faoliyati, miqdoriy tadqiqot, anketa tahlili, faktor tahlili, ta'lim metodologiyasi, fuqarolik tarbiyasi, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article explores the methodological foundations and practical effectiveness of developing students' social responsibility competence through project-based learning (PBL) technologies. The quantitative study was conducted using a specially designed IMK–25 questionnaire involving 324 university students. The results indicate that the level of social responsibility increases in proportion to students' experience of participation in project-based educational activities. Factor analysis revealed that social responsibility competence comprises multiple cognitive and affective components. The findings are discussed in comparison with national and international studies, substantiating project-based learning as a decisive factor in the development of social competence. Practical recommendations are provided for educators, educational institutions, and researchers.

Key words: project-based learning, social responsibility, competence development, student engagement, quantitative research, questionnaire analysis, factor analysis, pedagogical technologies, civic education, higher education.

Аннотация: В статье исследуются методологические основы и практическая эффективность формирования компетенции социальной ответственности у студентов посредством проектно-ориентированных образовательных технологий. Исследование проводилось количественным методом с использованием специально разработанной анкеты ИМК–25 с участием 324 студентов. Полученные результаты показали, что уровень социальной ответственности повышается в зависимости от опыта участия в проектно-ориентированной образовательной деятельности. Факторный анализ выявил, что компетенция социальной ответственности состоит из нескольких когнитивных и аффективных компонентов. В ходе обсуждения результаты исследования были сопоставлены с отечественными и зарубежными научными источниками, а проектное образование обосновано как решающий фактор развития социальной компетентности. В статье предлагаются конкретные практические рекомендации для образовательных организаций, преподавателей и исследователей.

Ключевые слова: проектно-ориентированные образовательные технологии, социальная ответственность, компетентность, студенческая активность, количественное исследование, анализ анкет, факторный анализ, методология обучения, гражданское образование, педагогические технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvorligi ta'lim natijalarini faqat bilim va ko'nikmalar bilan emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faol xulq-atvor bilan bog'liq kompetensiyalar orqali baholash zaruratini yuzaga chiqardi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasi, raqamli muhitning kengayishi va mehnat bozorining moslashuvchanligi talabalardan nafaqat



professional tayyorgarlikni, balki ijtimoiy mas'uliyatli qaror qabul qilish, jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etish hamda ijtimoiy oqibatlarini anglashni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi (Project-Based Learning) talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini shakllantirish uchun metodologik jihatdan samarali vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonini real ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'lash, talabalarni muammoli vazifalarni jamoaviy hal etishga jalb qilish hamda shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi shaxsning jamiyat oldidagi burchini anglash, ijtimoiy qarorlar oqibatlarini baholash va ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

K. T. Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida asoslab berilgan ^[1].

Shuningdek, M. K. Xoliqovning ilmiy ishlarida loyiha texnologiyalarining talabalarning ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan bo'lib, ushbu yondashuv talabalarning o'z faoliyat natijalariga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi ^[2]. Mavjud tadqiqotlarga qaramasdan, ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, ularning aynan loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali rivojlanish mexanizmlari hamda bu jarayonning miqdoriy empirik dalillari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Aksariyat ishlar nazariy tahlil yoki sifatli kuzatuvlarga asoslangan bo'lib, talabalarning o'z-o'zini baholashi asosidagi statistik natijalar kam uchraydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi yordamida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining rivojlanish darajasini miqdoriy usullar asosida aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi loyihaviy faoliyat kontekstida operatsionlashtirilgan, anketaviy so'rov asosida kompetensiyaning rivojlanish darajasi miqdoriy ko'rsatkichlar orqali asoslangan hamda loyiha texnologiyasining pedagogik ta'siri empirik jihatdan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida loyihaga asoslangan ta'limni rejalashtirish, ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv modullarini ishlab chiqish va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar yaratishda foydalanilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi pedagogik adabiyotlarda talabani mustaqil, jamoaviy va ijtimoiy faoliyatini integratsiyalovchi ta'lim modeli sifatida tavsiflanadi. K. T. Abdullayeva mazkur texnologiyaning talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishdagi rolini asoslar ekan, loyihaviy faoliyat jarayonida talaba o'z qarorlari va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni his eta boshlashini ta'kidlaydi ^[1].

M. K. Xoliqovning tadqiqotlarida loyiha texnologiyalari talabalarning ijodiy tashabbuskorligini oshirish bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal etishga yo'naltirishi aniqlangan ^[2]. Bu jarayonda talabalar nafaqat bilimlarini amalda qo'llaydi, balki jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritishni o'rganadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining o'lchov mezonlari va miqdoriy baholash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi ^[3-7]. Mazkur holat loyihaga asoslangan ta'lim samaradorligini empirik jihatdan baholashni murakkablashtiradi va ushbu tadqiqot zaruratini kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot miqdoriy tadqiqot dizaynida amalga oshirildi. Uning metodologik asosini anketalash tashkil etadi. Asosiy maqsad loyihaviy ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining shakllanish darajasini baholash, mavjud tendensiyalarni aniqlash va statistik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda uchta oliy ta'lim muassasasining bakalavr bosqichi talabalari (I–IV kurs) ishtirok etdi. Tanlov tasodifiy-strategik usulda amalga oshirildi va talabalar turli yo'nalishlardan tanlab olindi, bu esa ma'lumotlarning umumlashtirilishiga imkon yaratdi.

Ko'rsatkich	Qiymatlar
Jami qatnashchilar soni	N = 324 talabalar
Jinsi	Erkaklar – 42.6%; Ayollar – 57.4%
Yillar bo'yicha taqsimot	1-kurs – 20%; 2-kurs – 29%; 3-kurs – 28%; 4-kurs – 23%
Ta'lim yo'nalishlari	Pedagogika, iqtisodiyot, muhandislik, huquq



Katnashchilarni tanlashda ularning ta'lim jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanish tajribasi bo'lishi talab qilindi. Tadqiqot uchun maxsus ishlab chiqilgan anketa – "Ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini baholash shkalasi" (IMK–25) – qo'llanildi. U 25 ta nuqtadan iborat bo'lib, Laykert shkalasi (1–5) asosida tuzildi: 1 – "batafsil rozi emasman", 5 – "to'liq roziman".

Anketa to'rt asosiy subshkaladan tashkil topgan:

- A. Jamoaviy faoliyatga mas'uliyat (7 nuqta);
- B. Ijtimoiy qarorlar qabul qilish qobiliyati (6 nuqta);
- D. Jamoa manfaatini hisobga olish (6 nuqta);
- E. Mahalliy ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok (6 nuqta).

No	Savol	Shkala
4	Men jamoaviy ishda o'z mas'uliyatimni anglab ishtirok etaman	1–5
9	Men jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaslik kerak deb hisoblayman	1–5
17	Men ijtimoiy foydasi bor loyihalarda qatnashishni muhim deb bilaman	1–5

Anketa oldindan 15 nafar talabada pilot sinovdan o'tkazildi. Kronbax $\alpha = 0.86$ bo'lib, bu instrumentning yuqori ishonchligini ko'rsatdi. Tadqiqot 2025-yil mart–aprel oylarida amalga oshirildi. Anketalar onlayn platforma (Google Forms) orqali (65 %) hamda auditoriyalarda yozma shaklda (35 %) to'ldirildi. Barcha qatnashchilarga tadqiqotning maqsadi tushuntirildi va ixtiyoriy rozilik elektron shaklda olindi. Ma'lumotlar tahlili SPSS Statistics 26 dasturida amalga oshirildi. Qo'llanilgan statistik usullar quyidagilardan iborat:

- deskriptiv tahlil (o'rtacha qiymat, standart og'ish, mediana, moda);
- faktor tahlili (ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining ichki strukturasini aniqlash);
- korrelyatsiya tahlili (Pirson r) – loyihaviy ta'limdan foydalanish va ijtimoiy kompetensiyalar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- ANOVA – kurslar kesimida farqlarni tekshirish.

Shuningdek, ochiq savollarga berilgan javoblar kontent-tahlil usuli yordamida semantik to'plamlarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

IMK–25 anketa natijalariga ko'ra, umumiy ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi bo'yicha talabalarning o'rtacha ko'rsatkichi $M = 3.78$ ($SD = 0.61$) ni tashkil etdi. Ushbu natija kompetensiya darajasining o'rtadan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval: Turli subshkala bo'yicha qiymatlar

Subshkala	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)
Jamoaviy faoliyatga mas'uliyat	3.95	0.57
Ijtimoiy qaror qabul qilish	3.71	0.64
Jamoa manfaatini hisobga olish	3.62	0.59
Mahalliy tashabbuslarda qatnashish	3.85	0.62

Eng yuqori ko'rsatkich jamoaviy faoliyatdagi mas'uliyat hissi bilan bog'liq bo'lib, bu talabalarning guruhli ishda o'z rolini anglash qobiliyati shakllanganligini ko'rsatadi. Faktor tahlili (PCA, varimaks aylanishi) natijasida uchta latent omil aniqlandi, ular umumiy dispersiyaning 68.4%ini izohlaydi:

Faktor	Tarkibiy elementlar	Izohlangan dispersiya (%)
F1: Ijtimoiy anglashuv	Mas'uliyat, jamoa manfaati, empatiya	28.3
F2: Ishtirok tajribasi	Ijtimoiy loyihalar, tashabbus, yetakchilik	22.7
F3: Mulohazali qaror	Ijtimoiy tanlov, boshqalarga ta'sirni baholash	17.4



Faktor tahlili IMK–25 instrumentining ichki kognitiv tuzilmasi mavjudligini, ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi yagona ko'nikma emas, balki bir-biri bilan bog'liq bir nechta mexanizmlardan iborat ekanligini tasdiqladi.

Korrelyatsiya tahlili natijalariga ko'ra, loyihaviy ta'limda ishtirok etish tajribasi va ijtimoiy mas'uliyat darajasi o'rtasida mustahkam ijobiy bog'liqlik aniqlandi: $r = 0.61$ ($p < 0.01$). Mazkur natija loyiha asosida o'quv faoliyatini amalga oshirgan talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi yuqoriroq shakllanganini ko'rsatadi. Loyiha faoliyatida past darajada ishtirok etgan talabalarda (1–2 marta qatnashgan) o'rtacha ko'rsatkich $M = 3.41$ ni tashkil etgan bo'lsa, faol qatnashuvchilarda (5 martadan ortiq ishtirok etgan) ushbu ko'rsatkich $M = 4.03$ ga teng bo'ldi ($p < 0.01$).

2-jadval: ANOVA natijalari: kurslar bo'yicha farqlar

Kurs	O'rtacha IMK balli	SD
1-kurs	3.52	0.58
2-kurs	3.68	0.63
3-kurs	3.81	0.59
4-kurs	3.97	0.55

ANOVA tahlilida talabalarining kurslar kesimidagi ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari o'rtasida statistik ahamiyatli farq kuzatildi ($F = 4.83$; $p = 0.003$). Bu natija ta'lim jarayoni davomida loyihaviy faoliyatning to'planishi talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishini tasdiqlaydi.

3-jadval: Ishtirok darajasi va IMK o'rtacha ko'rsatkichi

Ishtirok darajasi	N	O'rtacha ball	SD
Loyihada ishtirok etmaganlar	47	3.22	0.67
1–2 marta ishtirok etganlar	96	3.41	0.58
3–5 marta qatnashganlar	122	3.76	0.52
5 martadan ko'p qatnashganlar	59	4.03	0.49

Talabalarining ochiq savollarga bergan javoblarida quyidagi asosiy tematik to'plamlar kuzatildi:

- “Jamiyat foydasi uchun ishlash ehtiyoji” (68 %);
- “Loyihalar orqali odamlar hayotiga ta'sir etish imkoni” (54 %);
- “Tashabbusni o'z qo'liga olishni o'rgatadi” (47 %).

Mazkur semantik elementlar ijtimoiy mas'uliyatning anglanishi va loyiha faoliyati orqali ushbu hisning kuchayishini yana bir bor tasdiqlaydi. Olingan natijalarga ko'ra, talaba subyekt sifatida ijtimoiy masalalarga munosabatini, jamoadagi rolini va qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini ongli ravishda anglay boshlashi uchun loyihaviy ta'lim kuchli o'quv faoliyati konteksti hisoblanadi. Talabalarda ijtimoiy anglashuv, qaror qabul qilish va tashabbuskorlik kabi komponentlarning o'sish tendensiyasi loyihada qatnashish tajribasi soni bilan bog'liqligi, o'quvning amaliyotga integratsiyalashuvi ijtimoiy-kompetent rivojlanish uchun hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Bu xulosa K. T. Abdullayeva tadqiqotida keltirilgan metodik takliflarga mos keladi, unda loyihalar ijtimoiy funksiyali o'quv muhitini yaratishi urg'ulangan ^[1].

Kurslar bo'yicha farqlarning aniqlanganligi (1-kurs – $M = 3.52$; 4-kurs – $M = 3.97$) ta'lim jarayoni davomida talabalarining ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichidagi o'sishni ko'rsatadi. Ushbu natijalar M. K. Xoliqova tomonidan ta'kidlangan loyihaviy ish faoliyatining tarbiyaviy samarasi va tajriba to'plash orqali kompetensiya shakllanishi g'oyasini tasdiqlaydi ^[2]. Umuman olganda, yuqori kurslarda talabalar loyihalarni nafaqat o'quv vazifasi sifatida, balki jamiyatga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham qabul qila boshlaydi. Bu internalizatsiyaning o'sishi kompetensiya shakllanishining muhim indikatoridir.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi talabalarda ijtimoiy vaziyatni anglash (real muammolar bilan ishlash), mas'uliyatni his qilish (guruh oldida vazifa bajarish), qaror qabul qilishda anglashuvli yondashuv (yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyatda nuqsonli ta'sir ehtimolini baholash), ijtimoiy foydali tashabbuslarni shakllantirish (tadbirlar, fleshmoblar, volontyorlik loyihalari orqali) kabi mexanizmlar yordamida rivojlanishni ta'minlaydi. Mazkur jarayon zamonaviy neyropedagogik yondashuvga ko'ra talabalarining “ijtimoiy miya sxemalari” (social cognition circuits) ni faollashtirishga xizmat qiladi, ya'ni u faqat bilimlarni emas, balki empatiya, prognostik baholash va emosional intellekt komponentlarini ham rivojlantiradi. Shu tariqa, ushbu tadqiqot mahalliy va xalqaro adabiyotlarda ilgari surilgan metodik takliflarga empirik tasdiq beradi hamda ularning real o'quv muhitida qanday amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida olingan empirik natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi talaba shaxsini ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishda muhim funksional mexanizm hisoblanadi. Ushbu texnologiya orqali talabalarda jamoaviy faoliyatdagi mas'uliyat, ijtimoiy qarorlarni ongli qabul qilish hamda jamiyat oldida faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish ko'nikmalari rivojlanadi. Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining shakllanish darajasi ularning loyihaviy faoliyatda ishtirok etish tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'tkazilgan tahlillar ijtimoiy anglashuv, tashabbuskorlik va jamoa manfaatlarini hisobga olish qobiliyatlari loyiha faoliyati bilan uzviy ravishda o'sishini tasdiqladi ($r = 0.61$, $p < 0.01$).

Tadqiqot natijalari ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasi yagona, yaxlit ko'nikma emasligini, balki o'zaro bog'liq, biroq nisbatan mustaqil shakllanuvchi kognitiv va affektiv komponentlardan iborat murakkab tuzilma ekanligini ko'rsatdi. Faktor tahlili mazkur holatni uch omilli struktura – ijtimoiy anglashuv, ishtirok tajribasi va mulohazali qaror qabul qilish orqali tasdiqladi. Ta'lim bosqichlari (kurslar) kesimida ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasining o'sish dinamikasi kuzatilgani loyihaviy ta'limning uzluksizligi, to'planuvchanligi va pedagogik samaradorligini namoyon etdi. Umuman olganda, tadqiqot ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalashda loyiha texnologiyalarining faqat metod emas, balki ijtimoiy-pedagogik vosita sifatidagi ahamiyatini asoslab berdi hamda ushbu yo'nalishni rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Olingan natijalarga tayangan holda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- loyihaviy faoliyatni ta'limning barcha bosqichlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, ayniqsa ijtimoiy foydali loyihalarni talabalar hayotiga joriy etish;
- ijtimoiy kompetensiyalarni baholash uchun maxsus diagnostik instrumentlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, jumladan IMK-25 kabi shkalalarni mahalliy sharoitga moslashtirish;
- loyihaviy mashg'ulotlar jarayonida rollar taqsimoti, liderlik, ijtimoiy vazifalarni anglash kabi komponentlarga alohida e'tibor qaratish;
- talabalarning faoliyatiga refleksiya va ijtimoiy baholash elementlarini kiritish orqali ularning o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash qobiliyatini shakllantirish;
- ijtimoiy kompetensiyaning neyropsixologik asoslarini, xususan ijtimoiy kognitiv sxemalar faolligi, empatiya va emotsional intellekt omillari orqali chuqurroq tadqiq etish;
- longityud tadqiqotlar yordamida ijtimoiy mas'uliyat rivojlanishining uzoq muddatli dinamikasini o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva K.T. Talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
2. Xoliqova M.K. Talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirishda loyiha texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari // Pedagogika fanlari axborotnomasi. – 2022. – №4. – B. 55–60.
3. Dogan B., Kaya-Tosun D. An effective method in improving social skills: Literature circles // International Journal of Educational Methodology. – 2020. – Vol. 6, No. 1. – P. 199–206.
4. Zamiri M., Heidari A., Jafari S. Strategies, methods, and supports for developing skills in learning communities: A systematic review // Administrative Sciences. – 2024. – Vol. 14, No. 9. – Article 231. DOI:10.3390/admsci14090231.
5. Lanza M., Sampaio M., Costa D. Socioemotional skills training program based on active learning // Teaching and Teacher Education. – 2025. – Vol. 123. – Article 103219. DOI: 10.1016/j.tate.2025.103219.
6. Ergasheva M.A. Tarixiy bilimlar asosida talabalarning ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasi (O'zbekistonning eng yangi tarixi fani misolida). 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2025.
7. Quronboyev Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2000. – 159 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.